



**N.T. O'RMONOV  
A.R. ISMAILOV**

---

# **KORPORATIV BOSHQARUV: PRINSIPLAR, SIYOSAT VA AMALIYOT**

---



658(07)  
0-31.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**



**N.T. O'RMONOV, A.R. ISMAILOV**

**KORPORATIV BOSHQARUV:**  
**PRINSIPLAR, SIYOSAT**  
**VA AMALIYOT**

*O'quv qo'llanma*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi  
Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan 5231900-korporativ boshqaruv  
bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

115113

• TDIU  
kutubxonasi

405

UO'K: 347.214.21(075)

KBK 67.404.1

K 98

Yo-18

**O'rmonov N.T., Ismailov A.R. Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyot. O'quv qo'llanma. - T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 256 bet.**

O'quv qo'llanma mazkur fan bo'yicha ma'ruza boblarining tayanch konsekti, mustaqil ta'limga oid topshiriqlar, oraliq nazoratga oid o'quv loyihalarining namunaviy boblari, yakuniy nazoratga oid namunaviy savollar va topshiriqlar, har bir bob bo'yicha talabalarning mustaqil ishlashi uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini hamda glossariylarni o'z ichiga olgan bo'lib u 5231900-korporativ boshqaruv bakalavriat ta'lim yo'nalishining "Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyot" fanidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

The manual provides a basic overview of the topic of lectures on this subject, tasks for self-study, sample topics of the curriculum for intermediate control, sample questions and tasks for final control, students Includes a list of literature and glossaries that are required for independent work, and is recommended as textbook on "Corporate governance: principles, policies and practices" with in the framework of corporate undergraduate 5231900.

**ISBN 978-9943-6003-2-4**

UO'K: 347.214.21(075)

KBK 67.404.1

© «IQTISODIYOT», 2019

© O'rmonov N.T., Ismailov A.R., 2019

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	<b>7</b>
<b>I. “Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyot” fanining predmeti va maqsadi</b>	<b>10</b>
1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018- yil 28- dekabr kuni parlamentga Murojaatnomasidan o‘rin olgan 2018- yilga “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar va yutuqlar to‘g‘risida.	10
1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017- yil 7 fevraldagi Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947 Farmonida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha 2018- yil - faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yilidagi ustuvor yo‘nalishlar to‘g‘risida.	14
1.3. Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyot fanining predmeti va maqsadi	29
1.4. Korporativ boshqaruvning turli shakllardagi subyektlarga ta’siri.	38
<b>II. Korporativ boshqaruv va korporativ menejment</b>	<b>42</b>
2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonidagi ustuvor yo‘nalishlar	42
2.2. Korporativ boshqaruvni menejmentdan farqi	44
2.3. Korporativ boshqaruvning rivojlanishidagi asosiy nazariylar.	47
2.4. Korporativ boshqaruvning zamonaviy rivojlanish nazariyasi.	52
2.5. Aksiyadorlarni manfaatdor tomonlari	53
<b>III. Korporativ boshqaruvning falsafasi va nazariyalari</b>	<b>58</b>
3.1. Korporativ boshqaruvning vujudga kelishining asosiy shart-sharoitlari va sabablari	58
3.2. Agentlik nazariyasi Boshqaruv nazariyasi..	60
3.3. Korporativ boshqaruvning modellari (anglo – amerika, germaniya va yaponiya modellari) va xususiyatlari..	64
3.4. “Korporativ boshqaruv modellarining mamlakatlardagi xususiyatlari.	68
<b>IV. Korporativ boshqaruvda hamkorlik; investorlar, kompaniyalar va direktorlar kengashi</b>	<b>71</b>

4.1. Korporativ boshqaruvda hamkorlik rivojlanishning muhim omili.	71
4.2. Korporativ boshqaruvda Korporatsiyalarni boshqarishda davlatning o'rnini.	73
4.3. Korporativ boshqaruv tuzilmalar faoliyatiga investitsiyalarni jalb qilishda jahon amaliyoti.	79
<b>V. Korporativ boshqaruvning me'yoriy-huquqiy asoslari</b>	<b>82</b>
5.1. Korporativ boshqaruvning me'yoriy-huquqiy asoslari.	82
5.2. Korporativ boshqaruvning mexanizmlari. Aksiyadorlar huquqining asosiy elementlari.	86
5.3. Korporativ huquq tushunchasi. Korporativ huquqning belgilari. Korporativ me'yoriy xujjatlarga qo'yiladigan talablar.	87
5.4. Korporativ boshqaruv kodeksi. Korporativ boshqaruvning global standartlari.	90
5.5. Korporativ boshqaruv dasturini amalga oshirish bo'yicha takliflar tizimi.	91
5.6. Korporativ boshqaruvning andozalari.	97
<b>VI. O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruvning institutsional asoslari.</b>	<b>117</b>
6.1. O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini shakllanishining huquqiy asoslari	117
6.2. O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish bosqichlari	119
6.3. Korporativ tuzilmalar va ularning tashkiliy turlari	121
6.4. O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy asoslari	123
<b>VII. Korporativ boshqaruv organlari.</b>	<b>132</b>
7.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi. Aksiyadorlar va manfaatdor shaxslar.	132
7.2. Direktorlar yig'ilishi: tarkibi va tuzilmasi. Direktorlar yig'ilishining vazifasi va majburiyatlari. Direktorlar qo'mitasi.	136
7.3. Mustaqil direktorning vazifasi va roli. Mustaqil direktorlar kodeksi.	142
7.4. Ijro etuvchi organlarning shakllanishi va ish faoliyatining tugatilishi. Ijro etuvchi organlar majburiyatlari. Ijro etuvchi organlar va direktorlar yig'ilishining o'zaro bog'liqligi.	143
7.5. Korporativ maslahatchi: majburiyatlari va javobgarligi.	145

7.6. Korporativ kotib: majburiyatlari va javobgarligi. Korporativ xulq - atvor kodeksi. Korporativ huquq tushunchasi	149
<b>VIII. Korporativ boshqaruvda risklarni boshqarish</b>	<b>152</b>
8.1. "Korporativ boshqaruv risklari" tushunchasi va uning korporativ tuzilmalar faoliyatidagi o'ziga xos xususiyati.	152
8.2. Risklarning tasniflanishi va uning turkumlari.	154
8.3. Korporativ boshqaruvda risklarni aniqlash usullari.	156
8.4. Korporativ boshqaruvda risklarni boshqarish va risk darajasini pasaytirish yo'llari.	157
8.5. Korporativ boshqaruvda investitsion loyihalarda risklarni baholashning matematik usullari	159
<b>IX. Korporativ strategiya va ijtimoiy mas'uliyat</b>	<b>163</b>
9.1. Korporativ strategiya mazmuni va mohiyati	163
9.2. Korporativ ijtimoiy mas'uliyatning mohiyati	166
9.3. Strategik rejalashtirishning yo'nalishlari	173
9.4. Korporatsiya strategiyasini ishlab chiqish jarayoni	174
9.5. Korporativ maqsad - korporativ strategiyalarning ahamiyati	178
<b>X. Listing kompaniyalarini boshqarishda korporativ boshqaruvning roli</b>	<b>183</b>
10.1. Listing kompaniyalarini faoliyati	183
10.2. Listing kompaniyalarini boshqarishda korporativ boshqaruvning roli	184
10.3. Birjalar faoliyati yo'nalishlari	185
10.4. Fond birjasidagi listingga kirgan kompaniyalar kodeksi.	186
<b>XI. Xususiy kompaniyalarni boshqarishda korporativ boshqaruvning o'rni</b>	<b>190</b>
11.1. Xususiy kompaniyalarni boshqarishning mohiyati	190
11.2. Xususiy kompaniyalarni boshqarishda korporativ boshqaruvning o'rni.	191
11.3. Iqtisodiyotni rivojlantirishda korporativ boshqaruvning roli	194
<b>XII. Jahonda korporativ boshqaruvning o'rni</b>	<b>197</b>
12.1. Yevropada sekyuritizatsiyalangan qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi	197
12.2. Rossiyada sekyuritizatsiya jarayonining ishtirokchilar uchun afzalliklari va kamchiliklari.	200

12.3. IPO (angl. "Initial Public Offering")ning afzalliklari va kamchiliklari	207
12.4. Taniqli kompaniyalar Aksiyalarining xedj-fondlarda tutgan ulushi	209
<b>XIII. Kengash a'zolari: direktorlar tayinlash, rollarda belgilash, taqdirlash</b>	211
13.1. Kuzatuv Kengash A'zolari faoliyati	211
13.2. Kuzatuv kengash a'zolarini saylash va ulami vakolatlarini belgilash.	212
13.3. Kuzatuv Kengash a'zolarini taqdirlash	213
<b>XIV. Kengash raisi: majlislar zalidagi haqqoniyligi</b>	215
14.1. Kengash raisi huquq va majburiyatlari	215
14.2. Kengash raisi: majlislar zalidagi haqqoniyligi	217
14.3. Kengashining a'zolarini saylash	220
<b>XV. Kengash faoliyati: amaldagi korporativ boshqaruv</b>	223
15.1. Kuzatuv kengashi faoliyatini samarali tashkil qilish	223
15.2. kengash faoliyati: amaldagi korporativ boshqaruv	224
15.3. Kuzatuv kengashining roli va vazifalarini	224
<b>XVI. Kengash faoliyati samardorligi: kengash faoliyatini samarali tashkil etish</b>	229
16.1. Kengash faoliyatini samarali tashkil etish	229
16.2. kengash faoliyati samardorligi: kengash faoliyatini samarali tashkil etish	230
16.3. Kengash faoliyati samardorligini baholash	231
<b>XVII. Kengash faoliyati samardorligi: kengash faoliyatini samarali tashkil etish</b>	235
17.1. Ijroiya organ a'olarinng faoliyati baholash	235
17.2. Ijroiya organ raisi huquq va majburiyatlari	236
17.3. Taftish Komissiyasi va uning faoliyatini baholash	238
<b>«KORPORATIV BOSHQARUV: PRINSIPLAR, SIYOSAT VA AMALIYOT» FANI BUYICHA TESTLAR</b>	241
<b>GLOSSARIY</b>	248
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>	252

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin tadbirkorlik faoliyatini yuritish va korporatsiyalarni boshqarish usullari o'zgarib boshladi. Korporativ boshqaruv andozalarini joriy etishning iqtisodiy jihatlarini, korporatsiyalar boshqaruvining samarali tizimini shakllantirish, boshqaruvning tamoyillari, uni tuzishga ta'sir etuvchi omillar kabi masalalar hozirgi vaqtda dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda, korporativ boshqaruv - mulkchilikning hissadorlik shaklining zamonaviy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Unda bir necha mulkdorlar manfaatlari birlashadi, yagona maqsad doirasida investorlar kapitallari birlashtiriladi. Mamlakat iqtisodiy - huquqiy tizimida mohiyatiga ko'ra kichikroq shartliliklar bilan, aynan Aksiyadorlik jamiyatlari jahon xo'jalik va huquqiy amaliyotida umum qabul qilingan Korporatsiya tushunchasi bilan tenglashtiriladi.

Korporativ boshqaruvda aynan Korporatsiyalar faoliyatini rivojlanish darajasi biznesni iqtisodiy o'sishini, unumdorligini, shug'ullanishlilikini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'zining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi №PF-4947 sonli Farmoning iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida ta'kidlaganidek, 3.4.-bandida - "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqei yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish".<sup>1</sup>

Korporativ boshqaruvning samarali rivojlanishiga erishish uning asl mohiyatini chuqur anglash va tushunishni, uning ilmiy soha sifatida shakllanishiga imkon bergan ilmiy-nazariy endashuvlarini tadqiq qilishni taqozo etadi.

Shuni ham aytish joizki, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish natijasida tashkil etilgan Aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonunlari to'plami. 2017 y.. № 6, 70 modda.



aloqalarning mustahkamlanib borishi samarali korporativ boshqaruv tizimi kengroq joriy qilinishini talab etmoqda. Demak, Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish iqtisodiyotning barcha sohalariga investitsiyalarni jalb etishning muhim omili hisoblanadi. SHu bois O'zbekiston Respublikasida o'z milliy korporativ boshqaruv modelini shakllantirish jarayoni boshlang'ich bosqichlarida turganligi sababli korporativ boshqaruvni tadbiq etish va uni kelajakda istiqbolli rivojlantirish, iqtisodiyotning u yoki bu modeli muammolarini hal etishga qaratilishi kursning asosiy vazifalaridan hisoblanadi

Bugungi kunda mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida Aksiyadorlik jamiyatlar iqtisodiy negizi keskin o'zgarib bormoqda. Ko'p ukladli iqtisodiyot bo'lganligi uchun turli mulk shakllariga asoslangan Aksiyadorlik jamiyatlar amaliy faoliyat olib bormoqdaki, ularning tahlilini olib borish, baholash, ular tuzilmasidagi o'zgarishlarni keng ilmiy tadqiq etish, ular faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu ukuv kullanma korporativ boshqaruv yo'nalishi talabalarini amaliy va kasbiy tayyorlash uchun belgilangan o'quv rejasi bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirishni hamda tizimli etkazib berishni ta'minlaydi.

Ushbu darslikda korporatsiyalarni boshqarish usullari va ularning amaldagi tizimi, korporatsiyalarni boshqarishning hozirgi zamon rivojlanish tendensiyalari, korporativ boshqaruv andozalarini joriy etish masalalari ko'rib o'tilgan. Korporativ tushunchasining iqtisodiy mazmuni va mohiyati, O'zbekiston Respublikasida mulk shakllarini o'zgartirish jarayonlarini amalga oshirishda kelib chiqadigan nizolar va ularning turlari, shuningdek, ularni bartaraf etish masalalariga alohida to'xtalgan.

O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqarishning milliy modelini shakllantirish jarayonlari davom etmoqda, shu sababli ushbu uquv qo'llanmada korporativ boshqaruv muammolari va ularni bartaraf etish boblariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi talabalarda korporativ boshqaruv tizimi va tarkibi, kompaniyalarda korporativ madaniyatni joriy etish bo'yicha tushunchalarga ega bo'lishdir.

O'quv qo'llanmaning asosiy vazifalari - bu korporativ boshqaruv tizimini va asosiy nazariyalarini o'rganish, kompaniyalarni boshqarish faoliyati tamoyillari, korporativ nizolarni echish va ularning huquqiy me'yoriy ko'nikmalarini hosil etishdan iborat.

O'quv qo'llanma iqtisodiy mutaxassisliklar talabalari uchun iqtisodiy faoliyatni yuritish maqsadida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi mumkin. Korporativ aloqalarini kuchaytirish va hamkorlikni mustahkamlash ochiq iqtisodiyot yo'lida izchil rivojlanishimizning muhim omili hisoblanadi.

# **1-BOB. “KORPORATIV BOSHQARUV: PRINSIPLAR, SIYOSAT VA AMALIYOT” FANINING PREDMETI VA MAQSADI**

## **Reja:**

**1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev tomonidan 2018- yil 28- dekabr kuni parlamentga Murojaatnomasidan o‘rin olgan 2018 yilga “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar va yutuqlar to‘g‘risida.**

**1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2017- yil 7- fevraldagi Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947 Farmonida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”dagi ustuvor yo‘nalishlar to‘g‘risida.**

**1.3. Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyot fanining predmeti va maqsadi**

**1.4. Korporativ boshqaruvning turli shakllardagi subyektlarga ta’siri.**

**Tayanch iboralar: O‘zbekistonda korporativ boshqaruvning milliy modeli, Unitar (investor) modeli, Minoritar Aksiyadorlar, Korporativ boshqaruv tizimi, Aksiyadorlar, Aksiyadorlik jamiyatlari, korporativ tuzilmalari.**

**1.1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018- yil 28- dekabr kuni parlamentga Murojaatnomasidan o‘rin olgan 2018- yilga “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar va yutuqlar to‘g‘risida.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a‘zolari, videokonferensiya aloqa tizimi orqali tuman, shahar va viloyatlardagi mahalliy kengashlarga saylangan xalq noiblari hamda barcha bo‘g‘indagi ijro hokimiyati va xo‘jalik boshqaruv organlari rahbarlari, nodavlat tashkilotlar va jamoatchilik vakillari bilan bo‘lib o‘tgan majlisdagi ma‘ruzasi asosida yaratilgan ushbu taqdimot materialida davlatimiz

rahbari tomonidan ilgari surilgan o'ta muhim va dolzarb fikrlar, g'oyalari, amaliy taklif va tavsiyalarning mazmun-mohiyati vizual tarzda ochib berilgan.

Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

Davlat boshqaruvining bunday demokratik usuli bugun O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamlari islohotlar, avvalambor, xalq bilan muloqot prinsipiga g'oyat uyg'un va hamohang bo'lib, bizning ish faoliyatimiz samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi, deb o'ylayman.

Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

Davlat xodimlari, avvalo, birinchi rahbarlar faqat kabinetda o'tirmasdan, joylarga borib, aholini bezovta qilayotgan eng dolzarb muammolarning amaliy echimi bilan shug'ullanmoqda. SHu ma'noda 2017 yil xalq bilan yaqindan muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, hayotiy muammolarini samarali hal etish bo'yicha yangi tizim yaratilgan yil bo'ldi, deb aytishga to'la haqlimiz. Bu tizimning asosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashning o'ziga xos demokratik instituti sifatida amalda o'zini oqlamoqda. Qisqa muddatda ana shu qabulxonalarga bir yarim milliondan ziyod fuqaro murojaat qilgani va qancha-qancha odamning yillar davomida hal etilmagan muammolari ijobiy echilgani O'zbekistonda xalq hokimiyati nomiga emas, amalda joriy etilayotganini ko'rsatmoqda. Iqtisodiyot sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar Iqtisodiyotimizni mutlaqo yangi asosda tashkil etish va yanada erkinlashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish, Ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish

O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy siyosatini ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hukumatimiz rahbari SHavkat Miromonovich Mirziyoyev o'zining

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi №PF-4947 sonli Farmonidagi 3-qismi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” da ta‘kidlaganidek, “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish”.<sup>2</sup>

Davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda Aksiyadorlarning rolini kuchaytirish, tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo‘yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish bo‘yicha tajribalarga va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

Biz 2018- yilga “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nom berib, Davlat dasturi doirasida 21 trillion so‘m va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyihani amalga oshirganimiz o‘tgan yili yaxshi niyat bilan boshlagan ishlarimizning natijasini ko‘rsatib turibdi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, kapital qurilish, transport-kommunikatsiya, servis va xizmat ko‘rsatish sohalarida salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritildi. Ayniqsa, har qachongidan ham og‘ir bo‘lgan bu yilgi mavsumda mirishkor dehqon va fermerlarimiz fidokorona mehnat qilganlarini alohida ta‘kidlashni istardim. Aholi farovonligini oshirish maqsadida joriy yilda ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori o‘tgan yillarga nisbatan sezilarli ravishda oshirildi.

Xususan, pedagog xodimlarning ish haqi so‘nggi 10 yilda birinchi marta 50 foizgacha ko‘paytirildi.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar tufayli, aholining real umumiy daromadlari 2017 yilga nisbatan 12 foizga oshdi.

---

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari to‘plami. 2018 й., № 6, cr. 70.

“Har bir oila – tadbirkor”, “YOshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar doirasida 2 trillion so‘mga yaqin mablag‘ ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi.

Bu yildan boshlab, soliqlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismi hisobidan hududlarda 5,5 trillion so‘m qo‘shimcha mablag‘ qoldirildi.

Bu, o‘tgan yilga nisbatan 6 barobar, 2016 yilga nisbatan esa – shunga e‘tibor berishingizni so‘rayman – 32 barobar ko‘pdir.

2018- yilda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi. Joriy yilda bu boradagi qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3 trillion so‘m mablag‘ yo‘natirildi. Natijada 416 ta qishloq yangicha qiyofaga ega bo‘ldi.

O‘tayotgan yilda hayotimizning boshqa sohalarida, jumladan, ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, madaniyat va san‘at, sport sohalarini rivojlantirish yo‘lida ham muhim qadamlar qo‘yildi. Ayniqsa, yurtimiz yoshlari Indoneziyada bo‘lib o‘tgan Osiyo va Para-Osiyo o‘yinlarida, Argentinada o‘tkazilgan o‘smirlar Olimpiadasida yuqori o‘rinlarni olgani barchamizni quvontirdi.

Xalqaro munosabatlarda ochiq va amaliy, faol tashqi siyosat olib borilayotgani tufayli ishonchli hamkor sifatida mamlakatimizning xalqaro obro‘si tobora ortib bormoqda.

Barcha qo‘shnilarimiz bilan do‘stona va o‘zaro ishonch ruhidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash bizning asosiy vazifalarimizdan biriga aylandi. 2018- yilda 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80 ta loyiha bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlar tobora kuchayib borayotganini hisobga olib, biz yangi Mudofaa doktrinasini qabul qildik. Qurolli Kuchlar tarkibidagi barcha qo‘shin turlarining tuzilma va vazifalari qayta ko‘rib chiqildi. Armiya va xalq birligini

ta'minlash maqsadida, barcha hududlarda harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etildi.

Albatta, yil mobaynida amalga oshirgan ishlarimiz ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin. Lekin bunday misollarni keltirish, qayd etishdan maqsad – ko'krakka urib maqtanish emas. Biz bundan mutlaqo yiroqmiz. Bizning maqsadimiz – o'tgan bir yillik taraqqiyot yo'limizni xolisona va tanqidiy baholashdan iborat. Fursatdan foydalanib, islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelayotgan, barcha qiyinchilik va sinovlarni mardona engib, o'zining fidokorona mehnati bilan jonajon Vatanimiz ravnaqiga ulkan hissa qo'shayotgan olijanob xalqimizga chin qalbidan minnatdorlik bildiraman.

**1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning  
2017- yil 7- fevraldagi Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947 Farmonida  
belgilangan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha 2019- yil "Faol investitsiyalar va  
ijtimoiy rivojlanish yili"dagi ustuvor yo'nalishlar to'g'risida**

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan.

Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi. SHu o'rinda bir savol tug'iladi: investitsiya deymiz, islohotlar deymiz, modernizatsiya, deymiz. Lekin bu o'zgarishlardan ko'zlangan asosiy maqsad nima o'zi?

YUrtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir.

Bu yo'nalishda oldimizda ulkan vazifalar turibdi. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog'liq.

Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda, maktabgacha ta'lim tizimini

rivojlantirishimiz, o'rt va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak. Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masaladir. Takror aytaman, tinchlik va sog'likni ta'minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz.

Nogironligi bo'lgan shaxslar, boquvchisini yo'qotganlar, yolg'iz keksalar, umuman, ko'makka muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, albatta, ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Kelgusi yilda tadbirkorlik, biznes uchun yanada qulay muhit yaratish, yangi ish o'rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini ko'paytirish, pensiya ta'minotini yaxshilash bo'yicha ham ko'p ishlar qilishimiz lozim.

SHularning barchasini hisobga olib, 2018- yilda boshlagan ishlarimizni mantiqiy davom ettirish va yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida, men kirib kelayotgan yangi – 2019 -yilga “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb nom berishni taklif etaman.

Yilga bunday nom berganimiz barchamizga juda katta vazifalar va mas'uliyat yuklaydi. Investitsiyalarni qanday qilib ko'paytiramiz, ijtimoiy muammolarni qanday hal qilamiz, degan savollar oldimizda ko'ndalang bo'lib turibdi.

Har bir rahbar – u vazir yoki markaziy idora boshlig'i bo'ladimi, deputat yoki senator bo'ladimi, kompaniya yoki xo'jalik birlashmasi raisi, viloyat yoki tuman hokimi bo'ladimi – barcha-barchamiz bu ishni eng birinchi vazifamiz, deb bilishimiz zarur.

Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz.

Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi.

Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart.

**Qadrlı yurtdoshlar!**

Iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirganda, avvalo keng